

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA‘LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Salayev Dilshodbek Jumanazarovich-
(PhD), Ma'mun Universiteti dotsenti
Email: salaev_dilshodbek@mamunedu.uz

TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362934>

ANNOTATSIYA

XXI asrning dastlabki choragi texnologik evolyutsiya, sun'iy intellektning kengayishi va globallashuv jarayonlari bilan birga pandemiyalar, yadroviy tahdidlar va urushlar kabi insoniyat zaifligini ko'rsatgan murakkab davr sifatida tarixda iz qoldirdi. Ushbu davrda turkiy tilli davlatlar o'zaro integratsiyani chuqurlashtirib, Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) shaklida yangi hamkorlik bosqichiga o'tdi. TDT Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va O'zbekistonni birlashtirib, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Maqolada TDTning 1992-yildagi birinchi sammitdan 2021-yilda "Turkiy Dunyo Nigohi – 2040" dasturi qabul qilingunga qadar uch bosqichli evolyutsiyasini tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada globallashuv sharoitida xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va madaniy yaqinlashuvning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, Sovet ittifoqi, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi, Naxichevan bitimi va deklaratsiya, siyosiy hamkorlik, mintaqaviy barqarorlik va xalqaro munosabatlar, kuzatuvchi maqomidagi davlat, Madaniy hamkorlik, til, tarix.

Салаев Дилшодбек Жуманазарович-
(PhD), доцент Университета Маъмуна

ЭВОЛЮЦИЯ ИНТЕГРАЦИИ ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ И ВСТУПЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В ОРГАНИЗАЦИЮ

АННОТАЦИЯ

Первая четверть XXI века оставила след в истории как сложный период, демонстрирующий уязвимость человечества перед лицом пандемий, ядерных угроз и войн, наряду с технологической эволюцией, расширением искусственного интеллекта и процессами глобализации. В этот период тюркоязычные государства углубили взаимную интеграцию и перешли на новый этап сотрудничества в рамках Организации тюркских государств (ОТГ). ОТГ объединяет Азербайджан, Казахстан, Кыргызстан, Турцию и Узбекистан, способствуя укреплению экономических, политических и культурных связей. В статье анализируется трехэтапная эволюция ОТГ с первого саммита в 1992 году до принятия программы "Видение тюркского мира - 2040" в 2021 году. Также в статье подчеркивается важность безопасности, экономической интеграции и культурного сближения в условиях глобализации.

Ключевые слова: Глобализация, Советский Союз, Совет сотрудничества тюркоязычных государств, Нахичеванское соглашение и декларация, политическое сотрудничество, региональная стабильность и международные отношения, государство-наблюдатель, культурное сотрудничество, язык, история.

Salaev Dilshodbek Jumanazarovich-
(PhD), Associate Professor of Mamun University

THE EVOLUTION OF THE INTEGRATION OF TURKIC STATES AND UZBEKISTAN'S JOINING OF THE ORGANIZATION

ABSTRACT

The first quarter of the 21st century, marked by technological evolution, the expansion of artificial intelligence, and globalization processes, has etched itself in history as a complex period that exposed humanity's vulnerabilities, such as pandemics, nuclear threats, and wars. During this time, Turkic-speaking states deepened their mutual integration and entered a new stage of cooperation through the Organization of Turkic States (OTS). The OTS unites Azerbaijan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkey, and Uzbekistan, fostering stronger economic, political, and cultural ties. This article analyzes the three-stage evolution of the OTS from its inaugural summit in 1992 to the adoption of the "Vision of the Turkic World - 2040" program in 2021. Moreover, the article underscores the significance of security, economic integration, and cultural rapprochement in the context of globalization.

Keywords: Globalization, Soviet Union, Cooperation Council of Turkic-Speaking States, Nakhchivan Agreement and Declaration, political cooperation, regional stability and international relations, observer state status, cultural cooperation, language, history.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

XXI asrning dastlabki choragi yuksak texnik-texnologik evolyutsiya, sun'iy intellektning tobora keng ko'lamda qo'llanilishi, resurslar iste'molini optimallashtirish orqali innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish kabi ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, insoniyat zaifligini namoyon etgan pandemiyalar hamda yadroviy tahdidni kuchaytirgan urushlar bilan tarix zarvaraqlarida o'zining murakkab izini qoldirdi. Shu bilan bir paytda, insoniyat sivilizatsiyasi misli ko'rilmagan darajada jadallashib borayotgan globallashuv va keng qamrovli, jumladan professional integratsiyalashuv bosqichiga to'laqonli qadam tashladi, bu esa iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hamkorlikni tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Bu omillar majmui davlatlarni jipslashish, til va madaniyatning o'zaro uyg'unligidan kelib chiqib mustahkam hamkorlik tuzilmalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratish zaruriyatiga olib keldi. Chegaralarning nisbatan shaffoflashishi, xalqaro munosabatlar mexanizmlarining takomillashishi hamda ommaviy axborot vositalarining, xususan ijtimoiy tarmoqlarning, jamiyat va ayrim davlatlarga bo'lgan ta'sirining kuchayishi bu jarayonning shiddatini tasdiqlaydi. Tarixan mustahkam o'zaro aloqalarga, til, din va madaniy jihatdan chuqur yaqinlikka ega bo'lgan Turkiy dunyo esa asrning dastlabki choragida navbatdagi integratsion birlashuv bosqichiga erishdi. Bu birlashuv va hamkorlik sur'atining tinimsiz o'sib borayotgani, turkiy davlatlar kelajak avlodlar manfaatlarini yo'lida to'plashga intilayotgan beqiyos salohiyat va investitsiyaviy resurslarini bir maqsad sari yo'naltirishdagi muhim strategik kapitalga aylanishi mumkin. Boshqa tomondan, globallashuv jarayonida murakkablashib borayotgan xalqaro munosabatlar tizimi, hududiy, etnik va diniy ziddiyatlarning kengayishi natijasida vujudga kelayotgan urush o'choqlari ko'plab davlatlarni xavfsizlik siyosatini mustahkamlashga undamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "...dunyoning turli mintaqalarida keskinlik o'choqlari ko'payib bormoqda" deya qayd etgani ham ushbu vaziyatning dolzarbligini tasdiqlaydi. Shu bois ko'plab davlatlar xalqaro harbiy tashkilotlarga a'zo bo'lib, transmilliy xavfsizlikni birgalikda ta'minlashga intilmoqda.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

XXI asrning birinchi choragi jahon miqyosida globallashuv jarayonlari yangi bosqichga o'tish uchun mustahkam poydevor hozirlab, xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik va texnologik standartlarning muvofiqlashtirilishi kabi omillarni mutlaqo yangicha shakllantirib bormoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi ham bu jarayondan chetda qolmay, iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy islohotlar orqali o'z rivojlanish yo'nalishini qayta ko'rib chiqmoqda. Aynan shu nuqtada turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi yanada yaqinlashuv va chuqurlashib borayotgan integratsiya, ko'p asrlik hamkorlik an'analari yangi, sotsiol-falsafiy paradigmada qayta tiklashga xizmat qilayotgan muhim tarixiy va siyosiy voqelik sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda TDT beshta mamlakatni – Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, O'zbekistonni birlashtiradi. Yana ikki mamlakat – Turkmaniston va Vengriya kuzatuvchi maqomiga ega. Ushbu mamlakatlarda taxminan 173 million kishi yashaydi, bu dunyo aholisining 2 foizdan ko'prog'ini tashkil qiladi [1].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

SSSR qulaganidan so'ng Markaziy Osiyo davlatlari va turkiy tilda so'zlashuvchi mamlakatlarning o'zaro yaqinlashuvi uchun tarixiy fursat etilgan edi. Ayni endi mustaqillikka chiqqan davlatchilikini mustahkamlash masalasida bosh qotirayotgan SSSRdan ajralib chiqqan turkiy tilda so'zlashuvchi mamlakatlar mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, ularni yagona maqsad yo'lida birlashtirish tashabbusini qo'lga olish bilan chiqqan ilk davlatlardan biri Turkiya davlati bo'ldi. Masalan, O'rta osiyo davlatlaridan birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 16-oktyabrda tan olgan va huddi shu zayilda 1992-yil 16- dekabrda bir vaqtning o'zida Qirg'iziston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasini birinchilardan bo'lib tan oldi[2].

Bu davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgach, 1992 – yilda uchala davlatda ham Turkiyaning elchixonasi ochilgan. Turkiya hukumati o'zaro hamkorlikning turli shakllari qatorida tomonlarni qiziqtirgan keng ko'lamli masalalarni muhokama qilish uchun sammitlarni – turkiy tilli davlatlar rahbarlarining qo'shma uchrashuvlarini o'tkazishga yetakchilik (lider) qildi. 1992-yilda Anqarada tashkil etilgan birinchi sammit chog'ida "mamlakatlar o'rtasidagi birodarlik va hamjihatlik ruhi" qayd etilgan Anqara bayonoti imzolandi. 1994-yilda bo'lib o'tgan Istanbul uchrashuvida o'zaro hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakatlar o'rtasidagi yaqin aloqalarni ko'rsatishga xizmat qilgan "birodarlik ruhi" o'rniga xalqlar o'rtasidagi "betaraf" iborasi keldi ya'ni tomonlar o'rtasidagi suverenitetni hurmat qilishlarini va davlatlarning hududiy yaxlitligini ta'kidladilar. Shundan so'ng, 1995-yil 28-avgustda Bishkek sammiti bo'lib o'tdi.

Istanbul sammitida bo'lgani kabi bu uchrashuvda ham hamkorlikni mustahkamlash va yanada rivojlantirishga yana bir bor urg'u berildi. O'zbekiston turli sabablarga ko'ra, 2000-yillar boshidan o'zining ishtirokini chekladi va keyinchalik to'xtatib qo'ydi[3].

Navbatdagi sammit, Ozarbayjon Respublikasining Boku shahrida 2000-yil 8- aprelda bo'lib o'tdi, bu yerga to'rt davlat prezidenti tashrif buyurdi: Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya rahbarlari. Turkmaniston va O'zbekiston Respublikasidan ham vakillar ishtirok etdi. Yig'ilishda tabiiy resurslarni o'zlashtirish va qazib olish muhimligini to'g'risidagi masalalar ko'rib o'tildi. Integratsiyaning yanada yuqori darajasi Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining Naxichevanda 2009-yil 3-oktyabrda o'tkazilgan 9-sammitidan so'ng yuzaga keldi, unda yaqinlashuvdan eng ko'p manfaatdor bo'lgan to'rtta davlat: Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya ishtirok etdi. Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining Naxichevan sammiti tarix, til va madaniyatning yaqinligi, do'stlik, tenglik va o'zaro manfaatdorlikka asoslangan barcha sohalarida oliy darajadagi aloqalar muhimligini yana bir bor tasdiqladi. Yig'ilishning eng muhim yutuqlari Turkiy Davlatlar Hamkorligi Kengashining (Turkiy Kengash) turklararo hamkorlikning yangi institutsional tuzilmasini yaratish to'g'risidagi qaror va qarorgohi Istanbulda joylashgan yangi xalqaro hukumatlararo tashkilotning ta'sis shartnomasining imzolanishi bo'ldi[4].

Shu tariqa **“Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi”** xalqaro birlashmasi BMTda ro'yxatdan o'tgan xalqaro hukumatlararo tashkilot sifatida o'z faoliyatini boshladi.

- Turkiy Kengashning tashkiliy tuzilma doirasida tashkil etilgan **birinchi sammit** Qozog'istonning Olmaota shahrida 2011-yil 20-21-oktabr kunlari o'tkazilgan bo'lib, unda iqtisodiy va savdo sohalarida hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

- **Ikkinchi sammit** 2012-yil 22-23-avgust kunlari Qirg'izistonning Bishkek shahrida "Ta'lim, ilmiy va madaniy hamkorlik" mavzusida tashkil etildi.

- 2013-yil 15-16-avgust kunlari Ozarbayjonning Gabala shahrida o'tkazilgan **uchinchi sammit** "Transport va aloqa" mavzusida bo'lib o'tdi.

- 2014-yil 4-5-iyun kunlari Turkiyaning Bodrum shahrida "Turizm sohasidagi hamkorlik" shiori ostida **to'rtinchi sammit** bo'lib o'tdi.

- 2015-yil 11-sentyabrda Qozog'istonning Ostona shahrida o'tgan **beshinchi sammitda** "Media va axborot" mavzusi muhokamalar markazida bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qo'shni va qardosh davlatlar va qator mintaqaviy tashkilotlar bilan ochiq va konstruktiv hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan oqilona tashqi siyosati Turkiy Kengash doirasidagi aloqalarning ham o'rnatilishida hal qiluvchi rol o'ynadi.

2018-yil 3-sentyabrda **Cho'lpon-ota** shahrida bo'lib o'tgan **oltinchi sammit** "Yoshlar va milliy sport" mavzusida o'tkazildi. Unda qozog'istonlik elchi Bog'dod Amreev Turkiy kengashning bosh kotibi etib saylandi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ushbu sammitda faxriy mehmon sifatida ishtiroki bu boradagi tarixiy qadam bo'ldi. Shuningdek, Vengriya Turkiy Kengashda kuzatuvchi maqomini oldi. Uchrashuv yakunida Davlat rahbarlari tomonidan **Cho'lpon-ota deklaratsiyasi** imzolandi.

Turkiy Kengash to'g'risidagi **Naxichevan bitimining** 10 yilligiga to'g'ri kelgan **yettinchi sammit** 2019-yil 15-oktabrda Ozarbayjon Respublikasining Boku shahrida "Kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash" mavzusida bo'lib o'tdi. Unda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog'iston Respublikasining birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti So'oronbay Jeenbekov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Tayyib Erdo'g'on, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisining o'rinbosari Purli Agamiradov qatnashdi. Sammitda O'zbekiston tashkilotga yangi a'zo sifatida qabul qilindi [5].

O'zbekiston unga qo'shilgandan so'ng Turkiy Kengash nufuzi, salohiyati va ahamiyati ortib, nufuzli xalqaro tashkilotga aylandi, desak xato bo'lmaydi. Kengashning 2021 yil 12 noyabrda Istanbulda bo'lib o'tgan **sakkizinchi sammiti** muhim o'zgarishlar bilan yodda qoldi. Kengash nomi **Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)** deb o'zgartirilishi hamda **"Turkiy dunyo nigohi – 2040"** dasturining imzolanishi katta tarixiy voqeelik bo'ldi.

2022-yil 11-noyabrda "Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari" shiori ostida o'tkazilgan sammit tashkilot qayta tashkil qilingandan keyin hisob bo'yicha 1-sammit aslida Naxichevandan keyingi to'qqizinchi sammit hisoblanadi. Unda a'zo davlatlarning muhim mintaqaviy va xalqaro masalalar hamda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'rildi.

2023-yil 03-noyabrda Qozog'istonning Ostona shahrida tashkilotning **o'ninchi sammiti** va 2024-yil 06-noyabrda Qirg'izistonning Bishkek shahrida **o'n birinchi** sammitlari o'tkazildi. Ushbu uchrashuvlar turkiy davlatlar uchun yagona alifbo, iqtisodiy integratsiya, barqaror rivojlanish, raqamli kelajak, xavfsizlik masalalarida bo'lib o'tdi. Davlat rahbarlari TDT doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qiladilar, shuningdek, bir qator ko'p tomonlama hujjatlarni, jumladan, yakuniy deklaratsiyani imzoladilar.

Demak mazkur tashkilot faoliyati tarixida uchta katta evolyutsion bosqich sodir bo'ldi.

- **Birinchi bosqich (1992-2009):** 1992-yilda Anqarada birinchi sammit o'tkazilib, "birodarlik ruhi" ta'kidlangan Anqara bayonoti imzolandi. Keyingi sammitlar (1994-yil Istanbul, 1995-yil Bishkek) hamkorlikni mustahkamladi, ammo O'zbekiston 2000-yillarda ishtirokini chekladi.

- **Ikkinchi bosqich (2009-2021):** 2009-yilda Naxichevanda o'tkazilgan to'qqizinchi sammit natijasida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi (Turkiy Kengash) tashkil etildi. Bu

tashkilot BMTda ro'yxatdan o'tgan xalqaro hukumatlararo tashkilot sifatida faoliyat boshladi. 2011-yildan boshlab Almatada birinchi sammit o'tkazilib, iqtisodiy va savdo sohasi muhokama qilindi. Keyingi sammitlar ta'lim, transport, turizm va media kabi sohalarga qaratildi.

- **Uchinchi bosqich (2021-hozirgi vaqt):** 2021-yilda Istanbuldagi sakkizinchi sammitda tashkilot nomi Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) deb o'zgartirildi va "Turkiy Dunyo Nigohi – 2040" dasturi qabul qilindi. Bu dastur iqtisodiy, madaniy va siyosiy hamkorlikni chuqurlashtirishni maqsad qildi.

O'zbekistonning 2021-yilda Istanbulda bo'lib o'tgan sammitda ushbu tashkilotga rasman a'zo sifatida ishtirok etishi esa mamlakatimizga mintaq va dunyo miqyosida tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo'shish imkoniyatini sezilarli darajada oshirdi. Bu qadam O'zbekistonning xalqaro maydondagi ta'sirini kengaytirish va strategik manfaatlarini himoya qilish uchun muhim platforma yaratdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, TDT turkiy tilli mamlakatlarni birlashtirgan, ko'plab sohalarda rivojlanish istiqbollari ega mintaqaviy tashkilotdir. Barcha a'zo davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston uchun TDT doirasida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash har tomonlama rivojlanish va barqarorlikni ta'minlashga, iqtisodiy o'sishni oshirishga va mamlakatlar taraqqiyotini rag'batlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. <https://parliament.gov.uz/ru/articles/870/>. html.
2. O'z.ME. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. /Toshkent.: 2000-2005. T-harf. 762-bet
3. Парубочая Е. Саммиты тюркских государств (1992–2001 гг.). // Science journal of Volgograd state university. Серия 4. История. Регионоведение. Международные отношения. В.:2011-год. 1998. Стр.115-116
4. Парубочая Е. Интеграция Тюркского мира на современном этапе.//Тамбов: Грамота. №6. 2016-г. Стр.147-150
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. // 14.09.2019-y., 03/19/568/3746-son

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000